

ISSN 2181-2357

XALQARO NAZARIY VA AMALIY TADQIQOTLAR  
JURNALI

# INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH

JURNAL FARG'ONA POLITEXNIKA  
INSTITUTI HAMKORLIGIDA NASHR  
ETILADI

**VOLUME 3,**  
**Issue 3**  
**2023**





«Al-Ferganus» MChJ.

A. M. Abdullayev

«Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali»

Ilmiy jurnal.

2021 yil noyabrdan beri nashr etilmoqda.

Oyiga bir marta nashr etiladi. 16+

3-tom, 3 -son.

Mart 2023 y.

**Tahririyat kengashi raisi Salomov O'ktam Raximovich, FarPI rektori**

**Bosh muharrir K. I. Kurpayanidi**

**Tahririyat hay'ati:** A.M.Abdullaev, M.S.Ashurov, E.A.Mo'minova, K.X.Abduraxmonov, A.N.Asaul, A.V.Burkov, U.V.G'ofurov, M.A.Ikromov, D.Kudbiev, E.S.Margianiti, B.Obrenovich, L.NA Sultonov, L.NA. , A.Xasanov, Sh.T.Karimov, Sh.Sh.Salixanova, U.K.Alimov, S.M.Turabdjano, B.A.Alimatov, R.J.Tozhiyev, A.A.Risqulov, B.M.Tursunov, S. F. Ergashev, J.D.Axmedov, Kh.A. Akramov, M.X. Xakimov, Sh.M. Iskandarova, Z.M. Sobirova, A.M. Muxtarova, L.M. Babakhodjaeva..

*Tahririyat manzili:* 150107

Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi, 86 -  
uy

Тел. +998971003888

<https://alferganus.uz/en/site/index>

E-mail: [alferganus.ltd@gmail.com](mailto:alferganus.ltd@gmail.com)



IF(Impact Factor) **9.88 /2022**  
<http://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2181-2357>



TOGETHER WE REACH THE GOAL  
**SJIF 2023: 5,971**  
<http://sjifactor.com/passport.php?id=21994>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida ro'yxatga olingan.

Ro'yxatga olish № 1189 Berilgan sanasi: 17-06-2021.

Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar jurnali Crossref, OpenAIRE, Google Scholar bazalariga kiritilgan.

*Impact-faktor 2021 Evaluation Pending*



CC litsenziyasi turi: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0).

Jurnal jahon va mintaqaviy darajada fan va amaliyotning rivojlanish masalalariga bag'ishlangan.

Jurnal olimlar, o'qituvchilar, doktorantlar, talabalar uchun mo'ljallangan.

Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali.

2023. T.3. №3.

ISSN 2181-2357



9 772181 235007 >

© «Al-Ferganus» MChJ,  
2023 Farg'ona, O'zbekiston



License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)



«Al-Ferganus» LLC.  
A. M. Abdullaev  
“International journal of theoretical and practical research”  
Scientific Journal.  
Published since November 2021.  
Schedule: monthly. 16+

Volume 3, Issue 3

March, 2023.

**Chairman of the Editorial Board Salomov Uktam Rakhimovich, rector of FerPI**


**Editor-in-chief K. I. Kurpayanidi**

**Editorial Board:** A. M. Abdullaev, M. S. Ashurov, E. A. Muminova, K. Kh. Abdurakhmanov, A. N. Asaul, A. V. Burkov, U. V. Gafurov, M. A. Ikramov, D. Kudbiev, E. S. Margianiti, B. Obrenovich, L. Ivars, K. E. Onarkulov, N. A. Sultanov, A. Khasanov, Sh. T. Karimov, Sh. Sh. Khamdamova, D. S. Salikhanova, U.K. Alimov, S.M. Turabdzhanov, B.A.Alimatov, R.Zh. Tozhiev, A.A. Riskulov, B.M. Tursunov, A.A. Shermukhamedov, S. F. Ergashev, J.D.Akhmedov, Kh.A. Akramov, M.Kh. Khakimov, Sh.M. Iskandarova, Z.M. Sobirova, A.M. Mukhtarova, L.M. Babakhodzhaeva.

Address of the editorial office:  
150107  
Fergana city, Fergana str., 86.  
Phone +998971003888  
<https://alferganus.uz/en/site/index>  
E-mail:  
[alferganus.ltd@gmail.com](mailto:alferganus.ltd@gmail.com)



IF(Impact Factor) **9.88 / 2022**  
<http://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2181-2357>



TOGETHER WE REACH THE GOAL  
**SJIF 2023: 5,971**  
<http://sjifactor.com/passport.php?id=21994>

Registered with the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan.  
Registration No. 1189 dated 17-06-2021.

The journal "International Journal of Theoretical and Practical Research" is included Crossref, OpenAIRE, Google Scholar.

*Impact-factor 2021 Evaluation Pending*



License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0).

The Journal addresses issues of global and regional Science and Practice. For scientists, teachers, doctoral students, students.

(2022). International journal of theoretical and practical research, 3(3).



© LLC «Al-Ferganus»,  
2023, Fergana, Uzbekistan



License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)





«Al-Ferganus» ООО.

А. М. Абдуллаев

«Международный журнал теоретических и практических исследований»

Научный журнал.

Издается с ноября 2021 г.

Выходит один раз в месяц. 16+

Том 3, Номер 3.

Март 2023 г.

**Председатель редакционного совета** Саломов Уктам Рахимович, ректор ФерПИ

**Главный редактор** К. И. Курпаяниди

**Редакционная коллегия:** А.М.Абдуллаев, М.С.Ашуров, Э.А.Муминова, К.Х.Абдурахманов, А.Н.Асаул, А.В.Бурков, У.В.Гафуров, М.А.Икрамов, Д.Кудбиев, Э.С.Маргианити, Б.Обренович, Л.Иварс, К.Э.Онаркулов, Н.А.Султанов, А.Хасанов, Ш.Т.Каримов, Ш.Ш.Хамдамова, Д.С.Салиханова, У.К.Алимов, С.М.Турабджанов, Б.А.Алиматов, Р.Ж.Тожиев, А.А.Рискулов, Б.М.Турсунов, А.А.Шермухамедов, С.Ф.Эргашев, Ж.Д.Ахмедов, Х.А.Акрамов, М.Х.Хахимов, Ш.М.Искандарова, З.М.Собирова, А.М.Мухтарова, Л.М.Бабаходжаева.

Адрес редакции: 150107

г. Фергана, ул. Ферганская, 86

Тел. +998971003888

<https://alferganus.uz/en/site/index>

E-mail: [alferganus.ltd@gmail.com](mailto:alferganus.ltd@gmail.com)



IF(Impact Factor) **9.88 /2022**

[http://journalseeker.research](http://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2181-2357)

[bib.com/view/issn/2181-](http://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2181-2357)

[2357](http://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2181-2357)



TOGETHER WE REACH THE GOAL

**SJIF 2023:5,971**

[http://sjifactor.com/passp](http://sjifactor.com/passport.php?id=21994)

[ort.php?id=21994](http://sjifactor.com/passport.php?id=21994)

Зарегистрирован в Агентстве информации и массовых коммуникаций при Администрации

Президента Республики Узбекистан.

Регистрации № 1189 от 17-06-2021.

Журнал «Международный журнал теоретических и практических исследований» включен в Crossref, OpenAIRE, Google Scholar.

*Импакт-факторы журнала: 2021 Evaluation Pending*



Тип лицензии CC поддерживаемый журналом: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0).

В журнале рассматриваются вопросы развития мировой и региональной науки и практики. Для ученых, преподавателей, докторантов, студентов.

Международный журнал теоретических и практических исследований. 2023. Т. 3. №3.

ISSN 2181-2357



9 772181 235007 >

©ООО «Al-Ferganus»,  
2023, Фергана, Узбекистан



License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)



International journal of  
theoretical and practical  
research

Scientific Journal

Year: 2023 Issue: 3

Volume: 3

Published:

31.03.2023

<http://alferganus.uz>

Citation:

Abduraxmanova, Sh. R. (2023). Strategies for increasing of the textile industry in Uzbekistan. *SJ International journal of theoretical and practical research*, 3 (03), 31-39.

Abduraxmanova, Sh. R. (2023). O'zbekistonda to'qimachilik sanoati raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 3 (03), 31-39.

Doi:

<https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7821356>



Abduraxmanova, Shoxida  
Ravshanovna

doctoral student of the Department of  
Management  
Fergana Polytechnic Institute

UDC 336.7:338 (575.1)

## STRATEGIES FOR INCREASING OF THE TEXTILE INDUSTRY IN UZBEKISTAN

**Abstract.** *The article provides strategies for increasing the competitiveness of textile industry enterprises, effective organization of strategic actions, their development and promotion. The problems existing in the industry were analyzed as a result of the study of regulatory documents and statistical data on textile support. As a result of the analyzes carried out by the author, a number of proposals and comments were made for the development of enterprises through the strategies of increasing competitiveness, increasing the sales volume and quality of products, and gaining a place in the world market.*

**Key words:** *competitiveness, strategy, brand, quality, marketing, human resources management, technology, investment projects.*

Abduraxmanova, Shoxida Ravshanovna  
"Menejment" kafedrasi tayanch doktoranti  
Farg'ona politexnika institute

## O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK SANOATI RAQOATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

**Annotasiya.** *Maqolada to'qimachilik sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari, strategik xatti-xarakatlarni samarali tashkil etish, ularni rivojlantirish va taraqqiy ettirish ko'zda tutilgan. To'qimachilikni qo'llab quvvatlashga doir me'yoriy hujjatlar, statistik ma'lumotlar o'rganilishi natijasida sohada mavjud bo'lgan muammolar tahlil qilingan. Muallif tomonidan o'tkazilgan tahlillar*





*natijasida raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalari orqali korxonalarni rivojlantirish, mahsulotlarning sotuv hajmini va sifatini oshirish, jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lishi uchun bir qator taklif va mulohazalar bildirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Raqobatbardoshlik, strategiya, brend, sifat, marketing, inson resurslarini boshqarish, texnologiya, investitsion loyihalar.*

**Абдурахманова, Шохида Равшановна**  
докторант кафедры “Менежмент”  
Ферганский политехнический институт

## СТРАТЕГИИ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** *В статье приведены стратегии повышения конкурентоспособности предприятий текстильной отрасли, эффективная организация стратегических действий, их разработка и продвижение. В результате изучения нормативных документов и статистических данных по текстильному обеспечению проанализированы проблемы, существующие в отрасли. В результате проведенных автором анализов, был сделан ряд предложений и замечаний по развитию предприятий через стратегии повышения конкурентоспособности, увеличения объема продаж и качества продукции, завоевания места на мировом рынке.*

**Ключевые слова:** *конкурентоспособность, стратегия, бренд, качество, маркетинг, управление человеческими ресурсами, технологии, инвестиционные проекты.*

### Kirish

Hozirgi kunda O'zbekistonda engil sanoat va to'qimachilik sohasi tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda. Yurtimizda qabul qilingan qator qaror va farmonlar, shu jumladan, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.01.2023 yildagi PF-2-sonli “Paxta to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning export salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi farmonlarida mamlakatimizda milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot - 1,6 baravar oshirish hamda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2-3 baravarga oshirish, to'qimachilik sohasining eksport salohiyatini 2023 yil yakuniga ko'ra 5 milliard AQSH dollariga etkazish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini 65 dan 81 foizga oshirish hamda 35000 ta bo'sh ish joyini to'ldirish rejalashtirilgan.





**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qo'yilgan masala bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili to'qimachilik sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borilayotganligi va raqobatbardoshlik strategiyalari ko'plab etakchi olimlar tomonidan tadqiq etilganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, engil sanoatning raqobatbardoshlik strategiyalarini nazariy va uslubiy jihatlarini rivojlantirishga doir fikr mulohazalarini chet elda shu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan bir guruh olimlardan F.Kotler [2], A.Tompson [3], M.B.Shifrin [4], L.V.Shulgina [5], M.J.Talasov [6], asarlarida bayon qilingan. Shuningdek, respublikamizning bir qator olimlari N.Q.Yo'ldoshev [8], B.Kattakishiyev [9], I.Mamayusupov va boshqalarning ishlarida ko'rish mumkin.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlariga asosan shu narsa ma'lum bo'ldiki, yurtimizda to'qimachilik sohasida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni hal etishda raqobatbardosh strategiyalarning o'rni nihoyatda ahamiyatlidir.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotning vositaviy-uslubiy apparati tizimli yondashuv doirasida tadqiqotning umumilmiy uslublari: mantiqiy va vaziyatli tahlil, expert baholash, so'rovnoma, kuzatish, intervyu, guruhlash, taqqoslash kabi taxlil vositalarini qo'llashga asoslanadi. Ushbu vositalar tadqiqot olib borishning turli bosqichlarida turli kombinasiyalarda foydalaniladi, yakuniy natijalar, xulosalar va takliflarni ilmiy asoslanganligini ta'minlashga imkon beradi.

### **Tahlil va natijalar.**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, raqamlarga e'tibor qaratsak, 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonolari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 458,2 trln. So'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,2 % ini tashkil etdi.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 20,3 % (2021 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 23,2 % (2021 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,9 %) ga to'g'ri keldi, shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,2 % (2021 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,2 % (2021 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,7 %) ni, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,9 % (2021 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %) ni tashkil etdi. Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 13,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 9,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmida 62 757,0 mlrd. So'm kuzatildi. Shuningdek, 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 119,5 % ekanligi kuzatildi<sup>5</sup>.


<sup>5</sup> <https://stat.uz/uz/>





2022 yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 %, fizik hajm indeksi 105,5 % ni, ishlab chiqarish hajmida esa 17 210,1 mlrd. So‘m kuzatildi. 2021 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,6 % ga, fizik hajm indeksi esa 118,7 % ga to‘g‘ri keldi.

O‘tgan besh yil davrdagi ma‘lumotlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, ishlab chiqarishning hozirgi holati hech qanday holatda ko‘ngildagidek emasligi ayon bo‘ladi. To‘g‘ri ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 24,8 mlrd. So‘mdan 62 757,0 mlrd. So‘mgacha, ya‘ni 2,5 barobar, uning fizik hajmi indeksi 107,4% dan 109,8% gacha o‘shish kuzatilgan.




### 1-rasm. To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi<sup>6</sup>

Shuningdek, o‘tgan besh yil davrda kiyim ishlab chiqarish hajmi 7,7 mlrd. So‘mdan 17 210,1 mlrd. So‘mgacha, ya‘ni 2,5 barobar, uning fizik hajm indeksi 103,3 % dan 105,5 % gacha o‘shish kuzatilgan.

<sup>6</sup> <https://stat.uz/uz/>





## 2-rasm. Kiyim ishlab chiqarish hajmi<sup>7</sup>

Biroq, bu o'sish ko'rsatkichlari mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud bo'lishiga qaramay, bu salohiyatdan yetarlicha foydalanilmayotganligini ko'rsatmoqda, deyish mumkin.

Afsuski, shuning uchun ham sanoat mahsulotlari tarkibida metallurgiya sanoatining ulushi – 23,2 %, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,2 % ni tashkil etgani holda to'qimachilik sanoatining ulushi juda pastligicha qolmoqda. Vaholanki, mamlakatimizda bu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun ham xomashyo, ham mehnat resurslari jihatidan yetarli imkoniyatlar mavjud.

Ayni paytda faoliyat yuritayotgan qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardosh bo'lmagani uchun tashqi bozorda u qadar raqobatbardosh emas. Bir so'z bilan aytganda, iste'molchi didiga to'g'ri keladigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish hali kerakli darajada emas. Buning sabablaridan biri, bu to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda asosiy e'tibor kichik ixtisoslashtirilgan korxonalar faoliyatiga qaratilganligi bo'lib, ular yirik korxonalarining o'rnini bosa olmaydi. Buning bir qancha sabablari bor. Kichik korxonalarda ishchi kuchi 30-40 kishidan oshmaydi. Boshqa tomondan, kichik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifati past va hajmi kam.

Bugungi kunda to'qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarishda sifat va narx mutanosibli, daromad darajasi, aholi va demografik tuzilishi, iqlim va geografik xususiyatlari, dizayn va modaga muvofiqligi, mahsulot brendi, ijtimoiy va ekologik standartlarga muvofiqligi va boshqa raqobatbardosh xususiyat va funksiyalar saqlanib qolishi iste'molchi tanlovida qolmoqda. Mahsulot sifatini oshirish va assortimentini yaxshilash muammolari, birlamchi xomashyo ishlab chiqarishdan tortib to yakuniy tayyor mahsulot chiqarishgacha bo'lgan reja barcha jarayonlar bilan chambarchas bog'liq [13].

Bu sohada mahsulot sifatini tubdan yaxshilash uchun paxta matolari, jun va ipak tolalarining yangi turlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur. Boshqa tomondan, ilg'or texnologiyani joriy etish orqali uni shakllantiruvchi mukammal ishlab chiqarish-texnik bazani yaratish orqali mahsulot sifatini oshirish mumkin.

<sup>7</sup> <https://stat.uz/uz/>



Shuningdek, yangi texnologiyalar va nou-xaularni jalb etish maqsadida jahon bozori talablariga mos, sifatli va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, bu borada tajribaga ega xorijiy hamkorlarning ishtirokini qo'llab-quvvatlash zarur.

Respublikamiz yengil sanoatini to'liq tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarishga ya'ni, kapitalni kam va ko'proq mehnat talab qiladigan tarmoqlarni (kiyim-kechak va trikotaj sanoati) rivojlantirishga yo'naltirilishi hamda xom ashyosini qayta ishlash va yakuniy tayyor mahsulotga yetkazishning yangi imkoniyatlarini yaratish zarur. Bu Respublika hududlarida mehnat resurslaridan foydalanish va mahsulotlar yetkazib berishda tayyor mahsulot ulushini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Aynan, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun ularda tayyorlanayotgan mahsulotlar sifat darajasini oshirish, ularning eksport salohiyatini kuchaytirish, ayniqsa, to'qimachilik sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini ta'minlash muhim masala hisoblanadi [1].

Bugungi shiddatli bozor iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida barcha ishlab chiqaruvchilar raqobatchilarni engishga xarakat qilib oldinga intilmoqda. Brendlar xar tomonlama narxli va narxsiz raqobatni qo'llagan holda to'qimachilik sanoatidan tortib sport kiyimlari sanoatigacha bo'lgan xar bir sanoat shiddatli raqobatga duch keladi. Brend raqobatda o'z o'rnini yo'qotsa boshqa brend unga qarshi chiqishga tayyor. Kompaniyalar uchun raqobat strategiyalarini rejalashtirish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Raqobat strategiyasi o'zi nima? Raqobat strategiyasi – bu korxonaning bozordagi mavqeyini himoya qilish va sanoatda barqaror raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lish uchun ishlab chiqadigan kompleks xarakterli rejasi.

Biz to'qimachilik sanoatidagi raqobatni ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi ishlab chiqarilgan matolarning sifati, bozordagi narxi va ulardagi iste'molchilarning aynan shu korxonaga mahsulotini tanlashi uchun kurash deb hisoblaymiz. Raqobatning asosiy sabablarini ko'rib chiqish kerak: birinchisi – iste'molchi uchun tanlash erkinligi; ikkinchisi – ishlab chiqaruvchi uchun tanlash erkinligi [15-18]. Demak, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi jozibador, sifatli, iste'mol va narx hususiyatlari majmuasiga ega bo'lgan, etkazib berish sharoitida xaridorlarning ehtiyojlarini qondirish va tijorat muvaffaqiyatini ta'minlaydigan matolar ishlab chiqarishga asoslanadi. Daromad olish, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish va ishchilarning ijtimoiy muammolarini hal etish uchun tovar ishlab chiqaruvchilarning to'g'ri tanlangan strategiyasi katta ahamiyat kasb etadi [12].

To'qimachilik sanoatida rivojlanish ancha yuqori sur'atlar bilan avj olmoqda, lekin shu bilan birgalikda bir nechta muammolar ushbu sohaning boshqaruv tizimida va korxonalar strategiyasini muvaffaqiyatli shakllantirishda quyidagi kabi ba'zi bir kamchiliklar:

- inson resurslarini boshqarish;
- zamonaviy menejmentni to'g'ri shakllantira olmaslik;
- marketing, moliya, ishlab chiqarish tizimlarini to'g'ri yo'lga qo'ya olmaslik;
- resurslar taqsimotidagi nomutanosiblik;
- sifat menejmentining darajasi ba'zi hollarda qoniqarsiz ekanligi;





• brendning kam taniqliligi sababli mijozlarning tovarga nisbatan ishonchining ortishiga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekistonda to'qimachilikni rivojlantirish va milliy brendlarni jaxon bozoriga olib chiqish uchun juda katta salohiyat mavjud, lekin bizning ulushimiz xali xam past foizlarda ekanligi achinarli. Raqobatbardoshlikni aniqlashga qaratilgan aniq modellar mavjud emas.

Shuningdek, yuqori darajadagi kadrlarni tayorlashda o'qitishning yangi texnologiyalarini qo'llash va shu sohada xalqaro hamkorlik deyarli yo'lga qo'yilmagan. Agar shu muammolarni bartaraf etishga ko'proq e'tibor qaratilsa, raqobatbardoshlik strategiyalarini qo'llash orqali ulkan natijalarga erishiladi.

Yuqoridagi muammolarni o'rganar ekanmiz, to'qimachilik sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish va ularni qo'llab quvvatlash bo'yicha quyidagi 37trategic xatti – xarakatlarni amalga oshirish va yo'lga qo'yish zarur deb hisoblaymiz. Strategik xatti - xarakatlarni 2 ta darajada, ya'ni korxonada va mamlakat darajasida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Korxonada darajasida:

- tarmoqda mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish;
- yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish;
- yangi texnologiyalarni joriy etish va qo'shilgan qiymat zanjirini bilimlar va innovatsiyalar asosida tizish hisobiga mehnat samaradorligini oshirish;
- Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish;
- ishlab chiqarish jarayoniga tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish.

Mamlakat darajasida:

- Respublikada mavjud mahalliy sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- to'qimachilik sohasida faoliyat yurita boshlagan tadbirkorlarning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ma'lum muddatga davlat imtiyozlari berish;
- to'qimachilik sanoatida sifatni oshirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalar asosida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish [14];
- to'qimachilik sanoatining asosiy tabiiy xomashyosi bo'lgan paxta bilan birgalikda ipak va jun ishlab chiqarishni rag'batlantirish va ushbu ishlab chiqarish yo'nalishlari bilan samarali integratsiya aloqalarini o'rnatish;
- korxonalarini modernizatsiya qilish uchun imtiyozli kreditlar berish, daromad solig'ini kamaytirish amaliyotini joriy etish;
- eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish;
- eksportchi korxonalarga ko'rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga chiqarishda ko'maklashish tizimini takomillashtirish;
- to'qimachilik sanoati korxonalarini faoliyatini rivojlantirishda kichik biznes, xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirishga muhim e'tibor qaratish [15];





•ma'muriy to'siqlarni qisqartirish, biznesni kreditlash shart-sharoitlarini yengillashtirish [10].

Xulosa qilib aytganda, to'qimachilik sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari davlat, hududlar va korxonalarining muvofiqlashtirilgan harakatlari orqali uzoq muddatli istiqbolda barqaror raqobatbardosh ustunliklarning yagona mexanizmini yaratish strategiyasiga asoslangan holda uni hal qilishda kompleks yondashuvga asoslanishi kerak. Bozor munosabatlari, tashkiliy – iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ayniqsa, aholining moddiy ahvolini yuksaltirish, marketing xizmati faoliyatini faollashtirishga muhim o'rin berilishi kerak/

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28.01.2022 yildagi PF-60-son,.
2. Philip Kotler: Marketing Essentials. (1984). / Филип Котлер: Основы маркетинга. Перевод на русский язык: Бобров, В.Б.-М., (1990).
3. Томпсон, А.А., Маргарет Питерсф., Джон Гембл. (2015). Стратегический менеджмент. Создание конкурентного преимущества. *Вильямс*.
4. Шифрин, М.Б. (2019). Стратегический менеджмент. Издательство Юрайт.
5. Шульгина, Л.В., Овсянников, С.В. (2009/3). Актуальные проблемы разработки антикризисной стратегии промышленного предприятия. *ФЭС: Финансы, Экономика, Стратегия. (11-15)*
6. Таласов, М.Ж., Тулеметова, А.С., (2008). Пути достижения конкурентоспособности продукции текстильной промышленности. *Сборник научных трудов вузов России. (Проблемы экономики, финансов и управление производством), (25)*.
7. Горина, Я.М., (2012). Факторная оценка конкурентоспособности предприятий текстильной промышленности. *Вестник Череповецкого государственного университета, (41)*.
8. Yo'ldoshev, N.Q. (2019). Strategik menejment. Darslik.-T.: Iqtisodiyot.,122 b
9. Kattakishiyev V., Mamayusupov I. (2008). Strategik menejment fanidan praktikum. – T.,Fan va texnologiya, 232 b.
10. Xonkeldieva, G.Sh., Shakirova, Yu.S., (2021). To'qimachilik sanoati korxonalarida eksportbop maxsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish. Monografiya, Farg'ona, AL-FERGANUS.
11. Abduraxmanova, Sh.R. , (2021). Issues of application of competitive strategies in textile enterprises. World Economics & Finance Bulletin (WEFB) №5, Berlin, <https://scholarexpress.net/index.php/wefb/article/view/426>
12. Абдурахманова, Ш. Р., (2022). Повышение конкурентоспособности текстильных предприятий. Наука сегодня: Фундаментальные и прикладные исследования. Материалы международной научно-практической конференции. (Вологда).








13. Abduraxmanova, Sh.R., (2022). To‘qimachilik sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni bosharish strategiyasi. Far PI, ITJ, maxsus son (5)
14. Ашуров, М. С., Курпаяниди, К. И., (2021). Миллий инновация тизимини шакллантиришнинг айрим муаммолари ва ечимлари, Логистика ва иқтисодиёт (Ўзбекистан), (3). // Ashurov, M. S., Kurpayanidi, K. I., Some problems of forming a modern innovative system, Logistics and economy (Uzbekistan), (3).
15. Ашуров, М.С. (2019). Ўзбекистонда тadbirkorлик муҳитининг замонавий ҳолати ва уни самарали ривожлантириш муаммоларини баҳолаш. Монография. // Ashurov M.S. (2019). Assessment of the current state of the business environment in Uzbekistan and the problems of its effective development. Monograph. Globe Edit Academic Publishing, European Union.
16. Ashurov, M., Kurpayanidi, K., Oripov, D., Shakirova, Y., Muydinova, G. (2023). Strategies for Improvement and Evaluation of the Quality Management System of Uzbekistan Manufacturers. In: Beskopylny, A., Shamtsyan, M., Artiukh, V. (eds) XV International Scientific Conference “INTERAGROMASH 2022”. INTERAGROMASH 2022. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 574. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-031-21432-5\\_167](https://doi.org/10.1007/978-3-031-21432-5_167)
17. Ashurov, M. S. & Kurpayanidi, K. I., (2020). COVID-19 pandemic sharoitida tadbirkorlik va uni rivozhlantirish masalalari: nazaria va amaliyot. Monograph. GlobeEdit Academic Publishing. <https://doi.org/10.5281/zenodo.4046090>
18. Kurpayanidi, K. (2022). Institutional conditions for the development of entrepreneurship in the context of the transformation of the national economy. *Economic Innovations*, 24(3(84), 67-76. Doi: [https://doi.org/https://doi.org/10.31520/ei.2022.24.3\(84\)](https://doi.org/https://doi.org/10.31520/ei.2022.24.3(84)).





**Hurmatli hamkasabalar “Al-Ferganus” nashriyoti va “Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar jurnali” elektron jurnali O‘zbekiston ta’lim xizmatlari bozorida o‘zining faoliyatini boshlaganligini ma’lum qilamiz.**

Ajoyib imkoniyatdan siz birinchilar qatorida foydalanib ilmiy nashrlaringizni chop etishingiz mumkin.

“Al-Ferganus” nashriyotimiz tomonidan Siz taqdim etgan darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya va ilmiy risolalarga ISBN, Doi halqaro raqamli idenfikatorlarni biriktirish, ularning elektron zamonaviy andozadagi muqovalar va ishlanmalarning elektron maketini yaratish, nashriyotda e’lon qilingan ishlarni elektron axborot nashrlarida joylashtirish xizmatlari ko’rsatiladi.

Bizning nashriyotimizning boshqa nashriyotlardan farqi shundaki, tezkor va sifatli xizmat ko’rsatamiz hamda eng asosiysi biz Sizing ishlaringizni Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va Rossiya Milliy kutubxonasi fondlariga bepul joylashga shuningdek, Rossiya ilmiy iqtiboslik indeksi (RINTs va E – library) platformasiga, CrossRef bazalariga shartnoma asosida joylashtirishga ko’maklashamiz.

“Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar jurnali” ISSN 2181-2357 elektron jurnali ham o‘z faoliyatini boshlamoqda. Bizning jurnalda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi ixtisosliklari fizika-matematika, kimyo, biologiya, geologiya-mineralogiya, texnika, qishloq xo’jaligi, tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, geografiya, yuridik, pedagogika, tibbiyot san’atshunoslik, arxitektura, psixologiya, sotsiologiya fanlari bo’yicha milliy va xorijiy mualliflarning fanlardan erishgan yutuqlari





va istiqbollari borasidagi ilmiy maqolalari, ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari e'lon qilinadi. Elektron jurnal har oyda bir marta e'lon qilinadi.

Jurnallarda e'lon qilinadigan har bir maqolaga shartnoma asosida DOI (Crossref) raqami beriladi.

Shuningdek, tahririyat tomonidan:

- maqolalarni sifatli tarjima qilish;
- maqolalarni tahrirlash va jurnallar talabiga moslash;
- maqolalarga ishlov berish;
- maqolalarni plagiats tekshirish;
- xorijdagi nufuzli (Scopus, Web of sciences va yuqori impakt faktorli)

jurnallarda maqollarni sifatli va ishonchli chop etishga ko'maklashish xizmatlarini ham ko'rsatadi.

**Imkoniyatni boy berib qo'ymang!**

**Quyidagi manzillarga murojaat qiling:**

**Elektron pochta manzili: [Alferganus.ltd@gmail.com](mailto:Alferganus.ltd@gmail.com)**

**Telegramm manzilimiz : [@Alferganus\\_ltd](https://www.instagram.com/Alferganus_ltd)**

**Telefonlar: (97) 100-38-88**

**(97) 337-86-00**











PUBLIC IDENTIFIERS OF INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH

PUBLISHER: AL-FERGANUS LLC - UZBEKISTAN

INTERNATIONAL JOURNAL ADDRESS<sup>IJA</sup>



IJA.ZONE/16456457645

INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH<sup>IJA</sup>

INTERNATIONAL ARTICLE ADDRESS<sup>IAA</sup>




IJA.ZONE/1264564543

INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH<sup>IAA</sup>





**ВНИМАНИЕ ОБЪЯВЛЕНИЕ!**



Уважаемые коллеги! Сообщаем вам, что издательский дом «AL-FARGANUS» и «Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar jurnali»- «Международный журнал теоретических и прикладных исследований» начали свою деятельность на рынке образовательных услуг Узбекистана.

Это прекрасная возможность одним из первых опубликовать свои научные публикации. Наше издательство «AL-FARGANUS» предоставляет услуги по прикреплению международных цифровых идентификаторов ISBN, Doi к учебникам, учебным пособиям, монографиям и научным брошюрам, созданию электронных макетов их обложек и дизайнов в современной электронной форме, размещению опубликованных работ в электронные публикации.

Отличие нашего издательства от других издательств в том, что мы предоставляем быстрые и качественные услуги, а главное, бесплатно размещаем ваши работы в Национальной библиотеке Узбекистана им. Алишера Навои и оказываем помощь в размещении вашей работы в Российской национальной библиотеке, а также на платформе Российского индекса научного цитирования (РИНЦ, e-library) облегчить размещение.

Совместно с Ферганским политехническим институтом запущен проект электронного научного журнала «Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar jurnali – International Journal of Theoretical and Practical Research. Международный журнал теоретических и прикладных исследований».

Миссия научного электронного журнала направлена на развитие национальной и зарубежной науки, обеспечение общедоступности теоретических





позиций и практических результатов прикладных исследований. В журнале представлены следующие специальности Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан по физике и математике, химии, биологии, геологии и минералогии, технике, сельскому хозяйству, истории, экономике, философии, филологии, географии, праву, педагогике, медицине, архитектуре, психологии, социологии. Журнал публикует научные статьи отечественных и зарубежных авторов о достижениях и перспективах науки, результатах научных исследований ученых, проводящих исследования. Электронный журнал издается один раз в месяц.

Каждой статье, опубликованной в журнале, на контрактной основе присваивается номер DOI (Crossref).

Также издательство оказывает услуги по:

- качественный перевод статей;
- редактирование статей и адаптация к требованиям журнала;
- обработка статей;
- проверка научных работ (статей, учебных пособий, монографий, диссертаций и др.) на плагиат статей;
- оказывает информационное обеспечение публикаций статей в престижных зарубежных журналах (Scopus, Web of Sciences и журналах с высоким импакт-фактором).

**Не упускайте возможность!**

**Пожалуйста, свяжитесь с нами:**

**Электронный адрес: [Alferganus.ltd@gmail.com](mailto:Alferganus.ltd@gmail.com)**

**Наш адрес в телеграмм: @Alferganus\_ltd**

**Телефоны: (97) 100-38-88**

**(97) 337-86-00**











PUBLIC IDENTIFIERS OF INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH

PUBLISHER: AL-FERGANUS LLC - UZBEKISTAN

INTERNATIONAL JOURNAL ADDRESS<sup>IJA</sup>



IJA.ZONE/16456457645

INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH<sup>IJA</sup>

INTERNATIONAL ARTICLE ADDRESS<sup>IAA</sup>



IJA.ZONE/1264564543

INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH<sup>IAA</sup>





O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti  
Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot  
va ommaviy  
kommunikatsiyalar  
agentligi

№ 7430-3360-d0e2-4e5b-8cf1-9914-2923  
Hujjat yaratilgan sana: 2021-06-22  
Ariza raqami: 32087634

Hujjat berilgan: ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ  
ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ "AL-FERGANUS"  
Qabul qiluvchining identifikatsiya raqami: 308291417

Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
**GUVOHNOMA**

№ 1189

**Nomi:** "Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar"

**Tarqatish shakli:** jurnal

**Til(lar)i:** o'zbek, rus, ingliz

**Muassis(lar)i:** "AL-FERGANUS" mas'uliyati cheklangan jamiyat

**Ixtisoslashuvi:** fan sohalaridagi ilmiy nashr

**Tahririyat manzili:** 150100, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahar, Mustaqillik ko'chasi, 42-uy

**Tarqatish hududi:** O'zbekiston Respublikasi hamda belgilangan tartibda chet davlatlarga

**Berilgan sanasi:** 17-06-2021

**Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ rahbari:** Xodjayev Asadjon Azatbekovich

Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrdagi 728-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risidagi nizomga muvofiq shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi. Elektron hujjatning nusxasida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish uchun [repo.gov.uz](http://repo.gov.uz) veb-saytiga o'ting va elektron hujjatning noyob raqamini kiriting yoki mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling. Diqqat! Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrdagi 728-son qaroriga muvofiq elektron hujjatlardagi ma'lumotlar qonuniy hisoblanadi. Davlat organlariga Yagona portalda shakllantirilgan elektron hujjatlarning nusxalarini qabul qilishni rad etishlari qat'iy taqiqlangan.

9103





21.03.2021

Центр государственных услуг

4007765



## СВИДЕТЕЛЬСТВО

### О государственной регистрации юридического лица (субъекта предпринимательства)

Настоящим подтверждается, что в Единый государственный реестр субъектов предпринимательства внесена запись о создании:

Общество с ограниченной ответственностью "AL-FERGANUS"

(Полное наименование юридического лица – субъекта предпринимательства с указанием организационно-правовой формы)

ООО "AL-FERGANUS"

(Сокращенное наименование юридического лица)

13.03.2021

За регистрационным номером: 963830

(Число, месяц (прописью), год):

Идентификационный номер налогоплательщика (ИНН):

Организационно-правовая форма:

Общество с ограниченной ответственностью

Местонахождение:

Ферганская область, г. Фергана, Aeroport,

Свидетельство выдано:

Ферганская область, г. Фергана, ЦЕНТР  
ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ

(Полное наименование регистрирующего органа):

